
VOLUME 10, OCTOBER 2026
ISSN: 3060-4958







The Lingua Spectrum



UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY

MORE INFO:

www.lingvospektr.uz

t.me/thelinguaspectrum

Kholmuradova L.E., Axmadova G.K.	Games for developing communicative skills in primary school	507
Axmadaliyeva X.A.	The effectiveness of developing life skills among grade 10–11 students through the CLIL approach	517
Abdurasulova N.A.	Fostering professional readiness among tourism students through contextualized English language learning	527
Ismailov Y.N.	Intangible cultural heritage as an object of didactic authenticity in German language teaching (a comparison of Germany and Uzbekistan)	535
Djurayeva M.Sh.	Project tasks based on comparative analysis of culturally situated communication in English speaking classes	543
Rakmankulova N.Kh.	Pedagogical conditions for developing the cognitive competence of future teachers through facilitative interaction	553
TRANSLATION		**564**
Mamatqulova L.B., Salisheva Z.I.	Translation strategies for culture-bound units in Chinese spring festival greetings into Uzbek	565
Uzakova L.A.	Translation issues of wedding-related phraseological units and the degree of equivalence	573
Mamatqulova L.B., Salisheva Z.I.	National and cultural concepts in Chinese mid-autumn festival (中秋节) greetings and their translation into Uzbek	582
Akhmedova A.N., Mirzayeva M.B.	Contextual semantics of literary portrait units and their functional correspondence in translation	590
Akhmedova A.N., Batirova Kh.E.	Grammatical and Syntactic Transformations in the Translation of Short News Items of Higher Education Institutions between Uzbek and English	601
HISTORY		**609**
Namazov A.T.	Uzbekistan 1930–1939: the period of the Latin alphabet	610
CONTENTS		**615**

The Lingua Spectrum
Cogito, ergo sum

Jurnal Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan 2025-yil 4-yanvar kuni 366/5-sonli qaror bilan tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Contextual semantics of literary portrait units and their functional correspondence in translation

Akhmedova Anorkhon Nasivali qizi[11]
anora_axmedova@uzswlu.uz
Associate Professor (PhD),
Uzbekistan State World Languages University

Maftuna Mirzayeva Bakhtiyor kizi[12]
maftuna@urdu.uz
PhD Student,
Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni

Annotation *This article theoretically examines how literary portrait units connect observable features with character evaluation. It develops compatible criteria for classification, contextual interpretation and translation comparison. Materials include relevant approaches from stylistics and translation studies, theoretical issues from the author's dissertation and specifically constructed examples. Methods comprise conceptual comparison, componential analysis and contextual analysis. Referential meaning, figurative mechanisms, evaluation sources and textual functions constitute distinct analytical dimensions. Interpreting external features as evidence of emotions or character traits requires sufficient contextual support. Translation correspondence is assessed through denotative accuracy, imagery, evaluative orientation, register and narrative perspective. Overlapping bodily, colour, movement and voice features motivate multilayer annotation. Translation operations are distinguished from stylistic outcomes: replacing an image does not necessarily diminish expressiveness. No quantitative corpus findings are presented. The framework supports subsequent systematic comparison of Oybek's novel Navoiy with its English translation, connecting classification, interpretation and translation assessment while preserving the distinctions between these complementary analytical procedures.*

Keywords *Literary portrait, linguistic poetics, contextual meaning, body-part vocabulary, evaluation, point of view, functional correspondence, parallel corpus*

Badiiy portret birliklarining kontekstual semantikasi va tarjimada funksional muvofiqligi

Axmedova Anorxon Nasivali qizi
anora_axmedova@uzswlu.uz
Dotsent (PhD),
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Mirzayeva Maftuna Baxtiyor qizi
maftuna@urdu.uz
Tayanch doktorant (PhD),
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

[11] Akhmedova A.N. — ORCID: 0000-0002-6884-6083
[12] Mirzayeva M.B. — ORCID: 0009-0003-1898-9355

Annotatsiya *Maqolada badiiy portret tarkibidagi til birliklarining tashqi belgini nomlashdan personajga munosabat bildirishgacha bo'lgan semantik imkoniyatlari o'rganiladi. Tadqiqotning maqsadi portretni tasniflash, kontekstda talqin qilish va tarjimada qiyoslash uchun mezonlarni ishlab chiqishdir. Materialni stilistika va tarjimashunoslikka oid qarashlar, dissertatsiya qo'lyozmasidagi masalalar hamda modellashtirilgan misollar tashkil etadi. Tushunchalarni qiyoslash, komponent va kontekstual tahlil usullari qo'llanadi. Portret birligining predmetga daxldor ma'nosi, obraz hosil qilish mexanizmi, baholash manbai va matniy vazifasi tahlil qatlamlari sifatida ajratiladi. Tashqi alomatni ruhiy kechinma yoki barqaror xarakter bilan tenglashtirish kontekst dalilini talab qilishi asoslanadi. Tarjimadagi muvofiqlik denotativ aniqlik, obrazning saqlanishi, baholovchi yo'nalish, registr va hikoya nuqtayi nazari bo'yicha ko'rib chiqiladi. Somatik, rang, harakat va ovoz belgilarining kesishuvchi tabiati tufayli korpusda ko'p belgili annotatsiyadan foydalanish taklif etiladi. Tadqiqot miqdoriy korpus natijalarini da'vo qilmaydi; taklif etilgan model Oybekning "Navoiy" romani va uning inglizcha tarjimasini qiyoslashga mo'ljallangan. Modelning qiymati portret tahlilidagi tasnif, talqin va tarjimaviy bahoni bir-biridan farqlagan holda o'zaro bog'lashida namoyon bo'ladi.*

Kalit so'zlar *Badiiy portret, lingvopoetika, kontekstual ma'no, somatik leksika, baholash, nuqtayi nazar, funksional muvofiqlik, parallel korpus*

Контекстуальная семантика единиц литературного портрета и их функциональное соответствие в переводе

Ахмедова Анорхон Насивали кизи
anora_axmedova@uzswlu.uz
Доцент (PhD),
Узбекский государственный университет мировых языков

Мирзаева Мафтуна Бахтиёр кизи
maftuna@urdu.uz
Докторант (PhD),
Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни

Аннотация *В статье теоретически рассматриваются семантические возможности языковых единиц литературного портрета, соединяющих описание внешности с выражением отношения к персонажу. Цель исследования – разработка согласованных критериев классификации, контекстуальной интерпретации и переводческого сопоставления портретных единиц. Материал включает положения стилистики и переводоведения, теоретические вопросы авторской диссертационной рукописи и специально сконструированные примеры. Используются сопоставление понятий, компонентный и контекстуальный анализ. Предметное значение, механизм образности, источник оценки и текстовая функция разграничиваются как самостоятельные уровни анализа. Обосновывается необходимость контекстуальных свидетельств при соотнесении внешнего признака с эмоциональным состоянием или устойчивой чертой характера.*

Соответствие в переводе рассматривается по параметрам денотативной точности, сохранения образа, оценочной направленности, регистра и повествовательной точки зрения. Пересечение соматических, цветовых, двигательных и голосовых характеристик обусловливает целесообразность многопризнаковой корпусной аннотации. Разграничиваются переводческая операция и стилистический результат: замена образа не означает ослабления выразительности. Исследование не представляет количественных корпусных результатов. Модель предназначена для сопоставления романа Айбека «Навои» с английским переводом. Её значение заключается в согласовании классификации, интерпретации и оценки перевода при сохранении различий между этими процедурами.

Ключевые слова *Литературный портрет, лингвопоэтика, контекстуальное значение, соматическая лексика, функциональное соответствие, параллельный корпус*

Kirish

Badiiy asarda insonning qanday ko‘rinishi haqidagi xabar ko‘pincha uning kimligi haqidagi tasavvurni ham boshqaradi. Yuz ifodasi, yurishdagi o‘zgarish yoki ovozning uzilishi o‘quvchini personajning holati haqida mulohaza yuritishga undaydi. Biroq matn ko‘rsatgan alomat bilan undan chiqariladigan xulosa bir xil narsa emas. Oqargan soqol yoshni eslatishi mumkin, lekin donishmandlikni o‘z-o‘zidan isbotlamaydi; bosh egish itoatni anglatishi ehtimol, ammo ayrim vaziyatlarda charchoq yoki iztirobni bildiradi. Portret tahlilining asosiy qiyinchiligi aynan shu o‘tishda, ya’ni seziladigan belgi bilan talqin qilinadigan mazmun orasidagi munosabatda yuzaga keladi.

Ushbu munosabat tarjimada yanada murakkablashadi. Asliyatda ishora orqali berilgan ruhiy holat boshqa tilda bevosita nomlanishi, hurmat ifodalovchi so‘z neytral muqobil bilan almashishi yoki kutilmagan qiyos odatiy tavsifga aylanishi mumkin. Natijada voqea haqidagi ma’lumot saqlansa ham, kitobxonning personajni anglash yo‘li o‘zgaradi. Shuning uchun portret tarjimasini faqat lug‘aviy to‘g‘rilik mezoni bilan baholash yetarli bo‘lmaydi. Qiyoslashda ma’lumotning qay tarzda berilgani, kimning nigohi orqali ko‘rsatilgani va qanday baho hosil qilgani ham tekshirilishi kerak.

Maqolaning maqsadi tashqi tavsifdan badiiy xarakter yaratishga o‘tish mexanizmini tushuntiradigan hamda tarjimaviy qiyos uchun qo‘llanadigan tahlil modelini ishlab chiqishdan iborat. Muammo uch savol atrofida qo‘yiladi: portret birligini oddiy tana nomi yoki voqea harakatidan qanday ajratish mumkin; uning baholovchi va xarakterologik ma’nosi qanday kontekst dalillari bilan asoslanadi; tarjimada shakliy o‘zgarishning funksional oqibati qanday aniqlanadi? Ushbu savollar tasnif, talqin va baholashni yagona tadqiqot doirasida muvofiqlashtiradi.

Tadqiqot muallifning inson qiyofasi tasviriga bag‘ishlangan nazariy qarashlarni alohida muammo asosida rivojlantiradi. Bunda nazariy yo‘nalishlarni tarixiy ketma-ketlikda sanashdan ko‘ra, ularning muayyan tahliliy vazifaga qanday javob berishi muhim deb olinadi. Ishning hissasi portret alomatini aniqlash, uning ma’nosini dalillash va tarjimadagi o‘zgarishini qayd etish uchun bir-biriga bog‘langan, lekin

aynanlashtirilmagan mezonlarni taklif qilishidadir.

Nazariy asoslar va Muammoning qo'yilishi

Klassik poetikada obrazli ifoda nomlashning o'ziga xos usuli sifatida izohlanadi. Aristotelning metaforaga doir qarashlari bir soha belgisining boshqa sohaga ko'chirilishini tushuntirishga asos bo'ladi (Aristotel, 1984). Portretga tatbiqan bu yondashuv ko'z, ovoz yoki qomatni tasvirlaydigan birlikning odatiy ma'nosi bilan badiiy qo'llanishi o'rtasidagi farqni ochadi. Lekin tropni topish tahlilning boshlang'ich nuqtasidir. Metafora qaysi taassurotni kuchaytirgani va ayni personaj tasvirida nima sababdan tanlangani izohlanmasa, tahlil vositalar ro'yxati darajasida qoladi.

V. Vinogradovning badiiy nutqni muallif uslubi bilan bog'liq holda o'rganishi alohida ifodani asarning umumiy tashkil topishidan uzmaslikka yo'naltiradi (Vinogradov, 1963). I. Galperinning stilistik tavsiflari esa ifoda imkoniyati bilan matnda yuzaga keladigan usulni farqlash uchun ahamiyatlidir (Galperin, 1958). Portret tadqiqotida bu farq amaliy natija beradi: har bir aniqlovchi epitet, har bir rang esa ramz sifatida belgilanmaydi. Bunday hukm uchun lug'aviy tarkibdan tashqari matndagi ajratib ko'rsatish, qarama-qarshilik yoki takrorlanish vazifasi tekshiriladi.

G. Leech va M. Short badiiy nasr tahlilida til shakli bilan adabiy vazifani bog'lash imkonini ko'rsatadi (Leech va Short, 2007). Bu tamoyil asosida bir xil sifat turli sintaktik yoki hikoyaviy qurshovda boshqa ta'sir tug'dirishi mumkin, degan ishchi xulosaga kelamiz. Masalan, belgi xolis tasvir ichida keltirilishi bilan personajning istehzoli replikasi tarkibida kelishi teng emas. Portretning uslubiy mohiyati uning tarkibidagi so'zlarda ham, ushbu so'zlarni o'zaro bog'laydigan bayon tartibida ham shakllanadi.

O'zbek stilistikasida til birliklarining uslubiy imkoniyatlari va tasviriy vositalariga bag'ishlangan tadqiqotlar milliy materialni tavsiflash uchun tayanch vazifasini bajaradi (Shomaqsudov va boshqalar, 1983; Qo'ng'urov, 1977). Portretga oid ma'nodosh birliklar bir predmetni anglatishi mumkin, ammo ularning nutqiy maqomi teng bo'lmaydi. Shu sababli chehra bilan bashara orasidagi farqni faqat atalayotgan tana qismi orqali tushuntirib bo'lmaydi. Bunday juftliklar portretning predmet mazmuni bilan so'zlovchi munosabatini ajratib o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Kognitiv stilistika xarakter yaratishning kitobxon tomonidan anglanish jihatini muhokama qilishga imkon beradi (Culpeper, 2002). Mazkur maqolada bu yo'nalishdan kelib chiqib, tashqi alomatni tayyor psixologik hukm emas, talqinga sabab bo'ladigan matniy signal sifatida ko'ramiz. Kitobxon bir xil alomatga turlicha izoh berishi mumkinligi sababli tahlilchi o'z xulosasining tayanchini ochiq ko'rsatishi zarur. Bu talab ayniqsa qo'rquv, g'azab, takabburlik yoki mehr singari bevosita kuzatilmaydigan xususiyatlarni belgilashda muhim.

Korpus stilistikasi alohida kuzatishni matn bo'ylab uchraydigan modellar bilan bog'lash imkonini beradi. M. Mahlbergning badiiy nasrga bag'ishlangan ishi shu yo'nalishdagi metodologik tayanchlardan biridir (Mahlberg, 2013). Tarjima tadqiqotida M. Baker tarjimonning o'ziga xos uslubini alohida kuzatish masalasini ilgari suradi (Baker, 2000). Bu ikki yo'nalishdan mazkur ish uchun olinadigan umumiy tamoyil shuki, bir ifodaning tarjimasi bilan tizimli uslubiy tendensiya tenglashtirilmaydi. Tendensiya haqida hukm qilish uchun taqqoslanadigan takroriy kuzatishlar zarur.

Tadqiqot materiali va Metodlari

Ish nazariy va sifat tahliliga asoslanadi. Uning materialini yuqorida ko'rsatilgan ilmiy manbalar, muhokama qilingan tushunchalar va mazkur maqola uchun tuzilgan misollar tashkil etadi. Misollar "Navoiy" romanidan olingan iqtiboslar emas; inglizcha variantlar ham nashr etilgan tarjimaga tegishli emas. Ular bir semantik yoki uslubiy farqni alohida ko'rsatishga xizmat qiladigan modellashtirilgan materialdir. Shu bois ulardan Oybek uslubi yoki

muayyan tarjimon faoliyati haqida empirik xulosa chiqarilmaydi.

Tushunchalarni qiyoslash orqali portret, tashqi alomat, badiiy vosita va baholash o‘rtasidagi chegaralar belgilanadi. Komponent tahlil birlikning umumiy predmet ma’nosi bilan qo‘shimcha uslubiy semalarini farqlash uchun qo‘llanadi. Kontekstual tahlilda bir xil ifoda turli vaziyatga joylashtirilib, talqinning qaysi qismi so‘zdan, qaysi qismi qurshovdan kelib chiqishi tekshiriladi. Tarjimaviy qiyosda esa bitta o‘zbekcha misolning ikki inglizcha ifodasi solishtirilib, o‘zgarishning faqat shakli emas, o‘quvchiga berilayotgan axborotga ta’siri ham izohlanadi.

Tahlil birligi sifatida yakka leksema emas, portret mazmunini yuzaga chiqaradigan eng kichik kontekstli parcha olinadi. Zarur holatda u birikmadan gapga yoki qo‘shni gaplarga kengaytiriladi. Bunday tanlov “qo‘l”, “ko‘z” kabi so‘zlarning barcha qo‘llanishini portret deb hisoblashdan saqlaydi. Ayni paytda umumiy kontekstni cheksiz kengaytirish ham maqsad qilinmaydi: talqin uchun qaysi dalil kerak bo‘lsa, shu dalilni o‘z ichiga oladigan matn chegarasi qayd etiladi.

Natijalar va Tahlil

Portret birligining funksional chegarasi

Badiiy portretni personajning sezgi orqali tasavvur qilinadigan belgilarini tanlab ko‘rsatish va ular vositasida uning matndagi qiyofasini shakllantirish usuli deb tushunamiz. Bunday ta’rif ko‘rinadigan alomatlarni ham, eshitiladigan ovoz xususiyatlarini ham qamrab oladi. Biroq personajga tegishli har qanday xabar portret tarkibiga kiritilmaydi. “U eshikni ochdi” voqea harakatini bildiradi; “U eshikni ocharkan, bukilgan yelkalarini tiklashga urindi” esa tana holatini ajratib ko‘rsatgani uchun portret vazifasini ham bajaradi.

Portret bilan harakat chegarasi shuning uchun qat‘iy grammatik mezon bilan belgilanmaydi. Ikkinchi misolda eshikni ochish syujetni oldinga siljitadi, yelkaning bukilishi esa personajning holatini ko‘z oldiga keltiradi. Bitta gap ikki vazifada qatnashmoqda. Demak, korpusda ham birlikni faqat “portret” yoki faqat «harakat» guruhiga majburan joylashtirish ma’no yo‘qotishiga olib keladi. Asosiy vazifa bilan qo‘shimcha vazifani alohida qayd etish aniqroq natija beradi.

Portretning mavjudligi obrazli vosita qatnashishiga ham bog‘lab qo‘yilmaydi. “Uning chap qoshida eski chandiq bor edi” jumlasida metafora yo‘q, lekin farqlovchi tashqi belgi mavjud. Bu chandiq keyinchalik tanib olish belgisi, o‘tmish voqeasiga ishora yoki personajlar munosabatining sababi bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, portret birligi bilan badiiy ko‘chim hajman teng kategoriyalar emas: portret neytral tavsif bilan ham yuzaga keladi, ko‘chim esa portretdan boshqa vazifalarda ham ishlatiladi.

Portret belgilarining kesishuvchi tuzilishi

Somatik, rang, kiyim, harakat va ovoz birliklarini yagona qatorning bir-birini istisno qiladigan a’zolari deb olish qiyin. “Titroq barmoqlar” birikmasida tana a’zosi ham, harakat belgisi ham bor; “oqargan lablar” esa somatik tayanchni rang o‘zgarishi bilan birlashtiradi. Birinchisini faqat somatik, ikkinchisini faqat rang guruhi sifatida belgilash portret tuzilishining bir qismini yashiradi. Shu sababli tahlilda belgi nimaga tegishli ekani bilan qanday namoyon bo‘lishi farqlanishi lozim.

O‘lchov	Tekshiriladigan savol	Modellashtirilgan misol
Predmet tayanchi	Qaysi a’zo yoki tashqi unsur tasvirlangan	Barmoqlar, lablar, yelka, chopon
Kuzatiladigan xususiyat	Qanday rang, shakl, harakat yoki tovush berilgan	Oqarish, bukilish, titrash, xirillash
Ifoda mexanizmi	Belgi qanday til vositasi bilan ko‘rsatilgan	Neytral tavsif, qiyos, metafora, takror
Matniy vazifa	Mazkur detal shu o‘rinda nimaga xizmat qilgan	Tanitish, holatni ko‘rsatish, baholash, qarshilantirish

1-jadval. *Portret birligini tavsiflashning mustaqil o‘lchovlari*

Jadvaldagi o‘lchovlar bitta birlikning turli tomonlarini qayd etadi. Masalan, kiyim nomining mavjudligi ijtimoiy maqom avtomatik ravishda ifodalanganini anglatmaydi. Eski chopon qashshoqlikni, tejamkorlikni yoki personajning ataylab oddiy ko‘rinishga urinishini bildirishi mumkin. Qaysi ma’no faol ekanini kiyimning o‘zi emas, uning atrofidagi xabarlar aniqlashtiradi. Shuning uchun predmet toifasi kuzatuv sifatida, ijtimoiy talqin esa dalil talab qiladigan xulosa sifatida yoziladi.

Tashqi alomat va ruhiy talqin munosabati

M1 misolni ko‘rib chiqamiz: “Eshik ochilishi bilan uning barmoqlari finjon dastasini qattiqroq siqdi”. Matn qo‘l harakatining kuchayganini bildiradi, lekin hissiyot nomini bermaydi. Agar keyingi gapda kutilmagan mehmonning kelishi aytilsa, hayajon talqini yuzaga kelishi mumkin. Tahdid haqidagi oldingi xabar esa xavotir talqinini kuchaytiradi. Sovuq xona tasviri mavjud bo‘lsa, xuddi shu harakatga jismoniy sabab topilishi ehtimol. Demak, bir xil alomatning turli izohlari orasidan tanlash vaziyat daliliga tayanadi.

Bu misolda seziladigan harakat, unga berilgan ruhiy izoh va xarakter haqidagi umumlashma uch xil hukmdir. Barmoqlarning siqilishi bir martalik holatni qayd etadi. “Xavotirlandi” degan izoh kontekst bilan asoslanishi mumkin; “u qo‘rqoq inson” degan xulosa esa qo‘shimcha va takroriy dalil talab qiladi. Ushbu darajalarni aralashtirish portretning psixologik mazmunini haddan tashqari kengaytiradi. Tahlilchi dalil yetarli bo‘lmaganda “ehtimoliy talqin” yoki “noaniq” belgisini qoldirishi kerak.

M2 misolda “Chol kuldi, ammo kulgisi ko‘zlariga yetib bormadi” deyiladi. Bu yerda kulgi bilan nigoh o‘rtasidagi nomuvofiqlik yuzaga chiqarilgan. Jumla samimiylikning yetishmasligi, yashirilgan qayg‘u yoki muloyimlikni saqlashga urinish tarzida anglanishi mumkin. Ammo shu qisqa parchadan qahramonni ikkiyuzlamachi deb atash uchun yetarli asos yo‘q. Portretning badiiy kuchi ba’zan yagona ruhiy tashxisni bermasdan, bir necha ma’no ehtimolini saqlab qolishidadir.

Shu asosda tashqi belgi bilan ichki mazmun orasidagi bog‘lanishni majburiy pog‘onalar zanjiri sifatida emas, kontekst bilan tekshiriladigan munosabat sifatida talqin qilamiz. Har bir portret alomati xarakter va muallif bahosigacha ko‘tarilishi shart emas. Ayrim detallar tasvirning aniqligini ta’minlaydi, ayrimlari vaqtinchalik holatni bildiradi, boshqalari esa takror va qarama-qarshilik orqali barqaror obraz belgisi bo‘lib qoladi. Bu farq nazariy tasnifning matnga moslashishini ta’minlaydi.

Leksik tanlov va baholashning semantik farqlari

Portret leksikasidagi yaqin ma’nolilik bir xil tashqi belgining turli talqinlarini yuzaga chiqaradi. M3 qiyosiy misolda “ozg‘in yigit”,

“nozik qomatli yigit” va “qoqsuyak yigit” birikmalarini olaylik. Ularning barchasi gavdaga tegishli bo‘lsa-da, ma’no hajmi va bahosi teng emas. Birinchi ifoda nisbatan xolis bo‘lishi mumkin, ikkinchisida qomatning tuzilishi va ehtimoliy estetik munosabat, uchinchisida esa ozg‘inlikning kuchaytirilgan tasviri mavjud. Ularni shunchaki bir-birining o‘rnini bosadigan variantlar deb olish denotativ farqni ham, uslubiy tanlovni ham soddalashtiradi.

Bu misolda daraja bilan bahoni alohida ko‘rish zarur. Belgining kuchli ifodalanishi har doim salbiy munosabatni anglatmaydi; kuchaytirish hayrat yoki achinishga ham xizmat qilishi mumkin. “Qoqsuyak” so‘zi personajning dushmani tilidan aytilsa, tahqirlash vazifasi kuchayadi; og‘ir kasallikdan so‘ng yaqinining holatini kuzatayotgan kishi nutqida esa qayg‘u yetakchi bo‘lishi mumkin. Lug‘aviy bo‘yoq kontekst bilan butunlay yo‘qolmaydi, ammo undan tug‘iladigan munosabat aniq vaziyatda belgilanadi.

Zid ma’noli birliklar ham tayyor axloqiy qarama-qarshilik sifatida talqin qilinmaydi. Yosh va qari, baland va past yoki oq va qora belgilarining bir sahnada qarshilantirilishi vizual farqni kuchaytirishi mumkin. Bu farqning ezgulik va yovuzlik bilan bog‘lanishi alohida dalillanishi lozim. Aks holda tahlilchi rang yoki jismoniy xususiyatga matn bermagan axloqiy mazmunni yuklaydi. Portret leksikasining semantik munosabatlari obraz talqiniga yo‘l ochadi, lekin talqinning yakuniy natijasini oldindan belgilamaydi.

Uyadoshlik va umumiylik munosabatlari esa qidiruvni tashkil etishga xizmat qiladi. “Yuz” doirasidagi qosh, peshona va lab belgilarini bir guruhda ko‘rish portretning qaysi qismi batafsil tasvirlanganini aniqlashga yordam beradi. Bunda til tizimidagi munosabat bilan asar ichidagi birgalikda kelish farqlanadi. Soqol va salla tana qismlari sifatida bir toifaga kirmaydi, ammo muayyan personaj tasvirida birgalikda ijtimoiy qiyofa yaratishi mumkin. Demak, lug‘aviy tasnif matniy aloqani to‘liq almashtirmaydi.

Obrazli ifoda va portretning matndagi joylashuvi

M4 misolda “Uning ovozi gap oxirida sinib ketdi” jumlasi ovoz hodisasini moddiy narsaning sinishi orqali tasvirlaydi. Ko‘chma ifoda uzilish, butunlikning buzilishi va holatning keskin o‘zgarishini birlashtiradi. Biroq ayni ovoz belgisi qayg‘u, zo‘riqish yoki hayajon bilan bog‘lanishi mumkin. Metaforaning aniqlanishi psixologik talqinni avtomatik hal qilmaydi. Shu sababli tahlilda obrazning manba sohasi, u ajratib ko‘rsatgan xususiyat va kontekstda faollashgan kechinma alohida qayd etiladi.

Portretning ta’siri birikmaning o‘zida ham, uning qayerda paydo bo‘lishida ham namoyon bo‘ladi. Qahramon tanishtirilganda keltirilgan ovoz tavsifi dastlabki tasavvurni shakllantiradi. Xuddi shu ifoda keskin bahsning yakunida berilsa, uning vaziyatga munosabati yoki kuchsizlanishini ko‘rsatishi mumkin. Keyingi epizodlarda ovoz yana o‘sha tarzda tasvirlansa, detal bir martalik holatdan takroriy xarakter belgisiga aylanishi ehtimol. Bunday o‘zgarish matndagi taqsimot bilan tekshiriladi.

Sintaktik qurilish ham belgilarning nisbatini boshqaradi. “U kuldi va yelkasini qisdi” bilan “U kuldi. Yelkalari esa qimirlamadi” bir xil ma’lumotni bermaydi. Ikkinchi modelda gap chegarasi va qarshilantiruvchi vosita mimika bilan tana holati orasidagi munosabatni ajratadi. Portretning badiiy tuzilishini faqat sifat va ot birikmalaridan qidirish shu kabi ta’sirlarni chetda qoldiradi. Korpusda gap chegaralarini saqlash ham texnik talabdan tashqari stilistik ahamiyatga ega.

Baholovchi nigoh va hikoya nuqtayi nazari

M5 misolda “Mehmon unga g‘oyat dimog‘dor ko‘rindi” deyiladi. “Unga” va “ko‘rindi” birliklari bahoning ma’lum kuzatuvchiga tegishli ekanini bildiradi. “Mehmon dimog‘dor edi” shaklida esa ushbu subyektiv cheklov yo‘qoladi. Ikki jumla bir xil xarakterni tilga olgandek tuyulsa ham, ular xabarning ishonchliligi va manbasini turlicha taqdim etadi. Birinchisida keyingi voqea

kuzatuvchining taassurotini rad etishi uchun ochiq imkoniyat qoladi.

Shu jihatdan muallif, hikoyachi va personaj bahosini aynanlashtirish metodologik xatodir. Salbiy sifat matnda mavjud bo‘lishi uning asarning yakuniy bahosi ekanini anglatmaydi. Istehzo, ishonchsiz hikoyachi yoki personajlar o‘rtasidagi ziddiyat bu ma’noni o‘zgartirishi mumkin. Baholash manbasini aniqlashda nutq egasi, idrok bildiruvchi fe’llar, modal birliklar va qo‘shni replikalar tekshiriladi. Manba aniqlanmagan o‘rinda muallifga qat’iy munosabat nisbat berishdan tiyilish lozim.

Tarjimaviy o‘zgarish va uning funksional natijasi

Portret tarjimasini qiyoslashda ikki savol farqlanishi zarur: tarjimon qanday amal bajargan va bu amal tasvirga qanday ta’sir ko‘rsatgan. Metaforaning almashtirilishi, ma’noning ochiq ifodalanishi yoki detalning tushirilishi birinchi savolga javob beradi. Obrazlilikning pasayishi, bahoning kuchayishi yoki kuzatuvchi nuqtayi nazarining o‘zgarishi esa ikkinchi savolga tegishli. Masalan, obrazning almashishi funksional yo‘qotish bilan doimo teng emas; boshqa obraz xuddi shunday ta’sirni saqlashi mumkin.

Mezon	Qiyoslash obyekti	Qayd etiladigan o‘zgarish
Denotativ aniqlik	Shaxs, a’zo, belgi va harakat	Aniqlash, umumlashtirish, qo‘shish yoki tushirish
Obrazning tuzilishi	Qiyos yoki ko‘chim asosidagi bog‘lanish	Saqlash, boshqa obrazga o‘tish, tasviriy izoh
Baho va intensivlik	Munosabat yo‘nalishi va belgining darajasi	Neytrallashuv, kuchayish, susayish, yo‘nalish almashishi
Registr	Neytral, so‘zlashuv yoki yuksak ifoda	Uslubiy maqomning saqlanishi yoki siljishi
Nuqtayi nazar	Kim ko‘radi va hukm qanchalik qat’iy	Kuzatuvchining saqlanishi, aniqlashuvi yoki yo‘qolishi

2-jadval. *Portret tarjimasini qiyoslash mezonlari*

M2 misolning inglizcha A varianti “The old man smiled, but the smile did not reach his eyes” tarzida tuzilishi mumkin. B varianti “The old man gave an insincere smile” shaklida berilsa, mimika bilan nigoh orasidagi qarama-qarshilik o‘rniga samimiyatsizlik haqidagi ochiq hukm keladi. B variantida o‘quvchi uchun talqin aniqroq, ammo yashirilgan qayg‘u kabi boshqa ehtimollar kamaygan. Shu sababli bu o‘zgarish faqat qisqartirish sifatida tavsiflanmaydi; u ko‘rinadigan alomatning ruhiy baho bilan almashtirilishidir.

M4 misol uchun “His voice broke at the end of the sentence” varianti ovoz uzilishini va ko‘chma tasvirni saqlaydi. “He sounded upset as he finished speaking” esa kechinmani umumiyroq nomlaydi. Ikkinchi variantda voqeaning hissiy tomoni mavjud, lekin ovozdagi konkret akustik o‘zgarish kamroq seziladi. Agar asl kontekst qayg‘uni emas, jismoniy zo‘riqishni ko‘rsatsa, “upset” tanlovi mazmunni ham toraytiradi. Funksional baholash shu sababli birikma darajasidagi yaqinlikdan kengroq kontekstga o‘tadi.

M5 misolni “The visitor seemed very haughty to him” tarzida ifodalash bahoning kuzatuvchiga tegishliligini bildiradi. “The visitor was very haughty” jumlasi esa taassurotni qat’iy tavsifga aylantiradi. Bunda “haughty” so‘zining o‘zi saqlangan bo‘lsa-da, portretning hikoyaviy maqomi o‘zgargan. Tarjimadagi ayrim yo‘qotishlar aynan modal va idrok bildiruvchi birliklar darajasida sodir bo‘lishi mumkinligini ushbu qiyos ko‘rsatadi. Ularni faqat portret

otlari va sifatlarini tekshirish orqali topib bo‘lmaydi.

M6 misolda “Hamma uning nuroniy chehrasiga qaradi” jumlasini olaylik. “Everyone looked at his face” varianti qarash harakatini va yuz nomini saqlaydi, biroq aniqlovchining baholovchi mazmunini bermaydi. “Everyone looked at his serene, venerable face” shakli mazkur bahoni ochishga urinadi, lekin “serene” orqali xotirjamlikni qo‘shimcha ta’kidlaydi. “Nuroniy”ning har bir kontekstiga bitta tayyor inglizcha muqobil belgilash shu sababli maqsadga muvofiq emas. Tarjima tanlovi keksalik, hurmat, ma’naviy salobat yoki yorug‘lik bilan bog‘liq qaysi ma’no yetakchi ekaniga tayanishi kerak.

Milliy-madaniy mazmunli tasvirlarda ham lug‘aviy o‘xshashlik bilan assotsiativ yaqinlik farqlanadi. Tabiat yoki yorug‘lik bilan bog‘liq qiyosni aynan ko‘chirish uning badiiy ta’siri avtomatik ravishda teng bo‘lishini kafolatlamaydi. Shu bilan birga bunday qiyosni izohli sifatga almashtirish ham har doim afzal emas. Tahlilning vazifasi oldindan bir usulni ustun qo‘yishdan ko‘ra, ayni tanlov qaysi mazmunni saqlagani va qaysi xususiyatni o‘zgartirganini ko‘rsatishdir.

Mahalliy tushirish bilan butun matn miqyosidagi yo‘qotish ham farqlanadi. Asliyatdagi belgi tarjimada ayni gapdan chiqarilib, keyingi gapda ifodalangan bo‘lsa, bu holat to‘liq omissiya sifatida belgilanmaydi. Kompensatsiya haqidagi xulosa esa yo‘qolgan xususiyatning boshqa joyda qaysi vosita bilan qayta berilganini ko‘rsatishni talab etadi. Faqat “tarjimon ta’sirni boshqa yo‘l bilan saqlagan” degan umumiy izoh tekshiriladigan ilmiy dalil o‘rnini bosa olmaydi.

Parallel korpus uchun annotatsiya modeli

Taklif etilayotgan modelni korpusga tatbiq etishda dastlab kuzatiladigan til faktlari, keyin talqin va tarjimaviy qiyos qayd etilishi maqsadga muvofiq. Har bir yozuvda asliyat parchasi, uning matndagi o‘rni, tegishli personaj va mos tarjima konteksti saqlanadi. Gaplar birma-bir mos kelmagan o‘rinlarda bitta gapning bir necha gapga yoki bir necha gapning bitta gapga muvofiqligi ko‘rsatiladi. Moslik topilmagan holat bilan tarjimada tushirib qoldirilgan holat tekshiruvsiz aynanlashtirilmaydi.

Qatlam	Asosiy ma’lumot	Tahlildagi vazifasi
Manba va kontekst	Birlik IDsi, nashr, sahifa, to‘liq gap, personaj	Misolning tekshirilishini ta’minlash
Kuzatiladigan belgi	Predmet tayanchi, rang, shakl, ovoz yoki harakat	Talqindan oldingi til faktini saqlash
Badiiy tashkil topish	Vosita, gap qurilishi, takror, joylashuv	Ifoda mexanizmini tavsiflash
Talqin	Baho manbai, ehtimoliy kechinma, dalil, noaniqlik	Xulosaning asosini ochiq ko‘rsatish
Tarjimaviy qiyos	Mos parcha, o‘zgarish turi, funksional natija	Amal bilan uning ta’sirini farqlash

3-jadval. *Portret yozuvining tavsiya etiladigan tarkibi*

Bu model bir birlikka bir nechta teg berishga imkon yaratadi. Masalan, “oqargan lablar” yozuvi somatik tayanch va rang o‘zgarishi belgilarini birgalikda oladi. Qo‘rquv talqini uchun dalil bo‘lmasa, emotsional qatlam bo‘sh yoki noaniq qoldiriladi. Natijada jadval ma’lumot yetishmaydigan o‘rinni taxmin bilan to‘ldirmaydi. Aynan shu xususiyat keyinchalik

bir guruh birliklarni izchil qidirish va tahlil qarorlarini qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Hisoblash bosqichida uch xil miqdor aralashtirilmasligi kerak: muayyan leksemaning jami uchrashi, portret vazifasidagi uchrashi va ajratilgan badiiy vositalar soni. Bitta gapda bir nechta portret birligi bo‘lishi, bir birlik esa bir necha toifaga tegishli bo‘lishi mumkin. Shu sababli ko‘p belgili tasnif bo‘yicha toifalar ulushining yig‘indisi yuz foizdan oshsa, bu holat hisoblash tamoyili bilan izohlanadi. Maqolada bunday hisoblar bajarilmagan; ular kelgusi empirik tahlilning talabi sifatida ko‘rsatilmoqda.

Annotatsiya ishonchliligini tekshirish uchun tanlangan parchalarni mustaqil ravishda qayta belgilash va kelishmovchilik sabablarini qayd etish mumkin. Ayniqsa “muallif bahosi”, “istehzo” va “xarakter belgisi” kabi talqinlar aniq mezon talab qiladi. Kelishmovchilik faqat xato sifatida emas, tasnif qoidasining yetarlicha ravshan emasligini ko‘rsatuvchi dalil sifatida ham ko‘riladi. Bunday tekshiruvdan keyin teglash yo‘riqnomasi aniqlashtirilsa, korpus natijasini boshqa tadqiqotchi qayta tekshirishi osonlashadi.

Muhokama

Tahlil portretni alohida tasviriy vositalarning yig‘indisi sifatida ko‘rish bilan uni matndagi munosabatlar tizimi sifatida o‘rganish orasidagi farqni ochadi. Tasnif qaysi til unsuri qatnashganini bildiradi; kontekstual sharh shu unsur nima sababdan mazkur ma’noni hosil qilganini tushuntiradi. Tarjimaviy qiyos esa ushbu munosabatning boshqa tilda qay tarzda tiklanganini tekshiradi. Ushbu vazifalarni ajratish natijani toraytirmaydi, aksincha, har bir xulosaning dalilini aniqlashtiradi.

Taklif etilgan yondashuvning asosiy afzalligi tashqi belgi va psixologik mazmun orasida avtomatik tenglik o‘rnatmasligidadir. M1 va M2 misollar bir alomatning bir necha talqini bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi. M3 leksik tanlovda intensivlik bilan bahoning farqlanishini, M4 obrazli ifodaning akustik detalni tashkil etishini ochdi. M5 kuzatuvchi nuqtayi nazarining, M6 esa madaniy va baholovchi mazmunning tarjimaviy qiyos uchun zarurligini namoyon etdi. Bular modellashtirilgan farqlardir; ularning badiiy matndagi ko‘lami korpus tekshiruvida aniqlanishi kerak.

Tadqiqotning chegarasi ham shu yerda belgilanadi. Tanlangan misollar nazariy farqlarni ravshanlashtiradi, ammo muayyan roman uchun qaysi model ustunligini ko‘rsatmaydi. Tarjima variantlarining o‘quvchiga real ta’siri ham alohida retseptiv tadqiqotsiz o‘lchangan deb aytilmaydi. Ushbu maqoladagi “ta’sir” atamasi matn tuzilishidan kelib chiqadigan talqin imkoniyatini bildiradi. Kelgusi tadqiqotda tarjima strategiyalarining chastotasi, personajlar bo‘yicha taqsimot va kitobxon talqini alohida tekshirilishi mumkin.

Oybekning “Navoiy” romani parallel korpusi uchun modelning amaliy qiymati qidiruv natijasini lingvopoetik dalilga aylantirish tartibini belgilashidadir. Dastlab tanlangan nashrlar va gaplar mosligi tekshiriladi, so‘ng portret birliklari kontekst bilan belgilanadi. Shundan keyingina muallif uslubining takroriy xususiyatlari yoki tarjimada baholovchi ma’noning o‘zgarishi haqida xulosa chiqarish mumkin. Nazariy model shu ishning boshlang‘ich mezonlarini beradi; empirik ma’lumot esa uni tasdiqlashi, cheklashi yoki qayta ko‘rib chiqishga undashi mumkin.

Xulosa

Badiiy portret birligining ma’nosi predmet belgisi, ifoda usuli va kontekstda yuzaga keladigan talqinning munosabatida shakllanadi. Uning somatik yoki rang guruhiga tegishliligi, obrazli vosita bilan berilgani va baholovchi vazifasi bir xil tasnif darajasini tashkil etmaydi. Shu bois ushbu xususiyatlarni mustaqil o‘lchovlar sifatida qayd etish nazariy jihatdan aniqroq, korpus annotatsiyasi uchun esa qulayroqdir.

Tashqi alomatdan ruhiy holat, barqaror xarakter yoki muallif munosabatiga o‘tish kontekst bilan dalillanishi kerak. Bahoning kimga tegishli ekanini aniqlash personaj taassurotini asarning umumiy hukmi bilan aralashtirishdan saqlaydi. Tarjimada esa bir xil

leksemaning saqlanishi funksional tenglikni kafolatlamaydi: modal birlik, obraz yoki registrdagi o‘zgarish personajning idrok etilishiga ta’sir qilishi mumkin.

Portret tarjimasini baholash uchun denotativ aniqlik, obrazning tuzilishi, baho va intensivlik, registr hamda nuqtayi nazarni qiyoslash taklif etildi. Tarjimaviy amal bilan uning stilistik natijasini farqlash umumiy “saqlangan” yoki “yo‘qolgan” hukmini aniqroq tavsif bilan almashtiradi. Mazkur nazariy model “Navoiy” romani parallel korpusida portret birliklarini tekshiriladigan mezonlar asosida o‘rganish uchun metodologik zamin yaratadi.

References:

1. Aristotel. (1984). *Poetika / qadimgi yunon tilidan M. L.* Gasparov tarjimasi. Sochineniya v chetyryokh tomakh. 4-jild. Moskva: Mysl. B. 645–680.
2. Baker, M. (2000). Towards a Methodology for Investigating the Style of a Literary Translator. *Target, 12*(2), 241–266. https://doi.org/10.1075/target.12.2.04bak
3. Culpeper, J. (2002). *A cognitive stylistic approach to characterisation.* E. Semino va J. Culpeper (tahr.), Cognitive Stylistics: Language and Cognition in Text Analysis. Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins. B. 251–277. https://doi.org/10.1075/lal.1.13cul
4. Galperin, I. R. (1958). *Ocherki po stilistike angliyskogo yazyka.* Moskva: Izdatelstvo literatury na inostrannykh yazykakh.
5. Leech, G. N., Short, M. (2007). *Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose.* 2-nashr. Harlow: Pearson Longman.
6. Mahlberg, M. (2013). *Corpus Stylistics and Dickens’s Fiction.* New York: Routledge.
7. Mirzayeva, M. B. (sana ko‘rsatilmagan). *Badiiy matnda inson qiyofasini ifodalashning stilistik va lingvopoetik asoslari.* Dissertatsiyaning 1.1-bo‘limi. Nashr etilmagan qo‘lyozma.
8. Qo‘ng‘urov, R. (1977). *O‘zbek tilining tasviriy vositalari.* Toshkent: Fan.
9. Shomaqsudov, A., Rasulov, I., Qo‘ng‘urov, R., Rustamov, H. (1983). *O‘zbek tili stilistikasi.* Toshkent: O‘qituvchi.
10. Vinogradov, V. V. (1963). *Stilistika. Teoriya poeticheskoy rechi. Poetika.* Moskva: Izdatelstvo Akademii nauk SSSR.